



Innovative
Science

JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE



Vol. 3, No. 5, 2024

WWW.INNOVASCIENCE.UZ



XX ASR 20-YILLARIDA AMERIKA QO'SHMA SHTATLARIDA FERMERLAR HARAKATINING MOHIYATI

Annotation: Ushbu maqolada XXasr boshlarida AQSH qishloq xo`jaligining o`ziga xos taraqqiyot yo`li, qishloq xo`jaligidagi ixtirolarning samaradorligi shuningdek, birinchi jahon urushi davrida va undan keyin AQSH fermer xo`jaligining jahon miqyosidagi ahamiyati yoritilgan. 1920-yillardagi agrar inqirozning fermerlar ahvoliga ta`siri, fermerlar harakating vujudga kelish sabab-omillari va mamlakatdagi norozilik chiqishlari haqida ma`lumot beriladi.

Keywords: AQSH, fermerlik, agrar inqiroz, qishloq xo`jaligi, "Nyu-York Times" gazetasi, Buyuk depressiya, agrar-iqtisodiyot, narx indeksi, ipoteka krediti.

**Information about
the authors**

Aytmatova Zarnigor

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti Jahon tarixi kafedrasи
o'qtuvchisi

Esanova Dilmira

5-1 Tarix-20 guruh talabasi

KIRISH

XX asr boshlarida AQSh dunyodagi eng yirik qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilaridan biri edi. Unumdoor tuproqlarning ulkan kengligi, shuningdek, iqlim zonalarining xilma-xilligi amerikalik fermerlarga muhim raqobatda ustunlik berdi. O'sha davrda ko'plab ixtiolar paydo bo'la boshladи. Bug' dvigateli, telegraf, temir yo'llar, okean layneri, telefon, elektr energiyasi va hatto kassa apparatlaridan ham shu davrda foydalana boshlandi. Birinchi jahon urushi davrida AQSHda yuk mashinalari, T-modeli avtomobillarining tarqalishi va traktorlar fermer xo`jaliklarining tez kengayishiga shuningdek, qishloq xo`jaligi bozorini misli ko'rilmagan hajmgacha kengaytirishga imkon berdi. Ammo urushidan keyingi 1920-1921-yillardagi qishloq xo`jaligi inqirozi Amerika dehqonchiligining farovonligiga qattiq ta'sir qildi. 1920-yillarning o'rtalarida qishloq xo`jaligidagi depressiya tobora kuchayib borayotgani sababli fermerlar yengillikni talab qilishdi. AQSH 1920-yildan 1928-yilgacha bo'lган davrda Fermerlik harakati Buyuk depressiya davrida ko'proq ommaviy harakatning asosiga aylandi. Ko'p jihatdan 1920-yillar AQSHda qishloq xo`jaligi uchun burilish nuqtasi bo'lgandi. Keyinchalik, Kongress darajasida birinchi marta davlatning agrosektorga zamонави shakkarda-subsidiyalar, imtiyozli kreditlar vositasida faol aralashuvi zarurligi e'lon qilingan.

XX asr boshlarida AQSh dunyodagi eng yirik qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilari edi [1]. 1860-1910-yillar oralig'ida AQSHda fermerlar soni 3 marta ko'paydi.

Birinchi jahon urushida AQSh fermerlari Yevropada harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan boshqa ittifoqdosh davlatlar uchun muhim ta'minotchi bo'lgandi. 1917-yildan boshlab AQSh Milliy Urush



bog'i komissiyasi va Hukumat g'alabani rag'batlantirdi. Shaxsiy foydalanish va urush harakatlari uchun bog'lar ajratildi, shaxsiy hovlilarda va jamoat bog'larida qishloq xo'jaligi ko'chatlari ekildi. Ushbu bog'lardan ishlab chiqarish birinchi jahon urushi oxiriga kelib 1,2 milliard dollardan oshdi [2]. Ammo urushidan keyingi 1920-1921-yillardagi qishloq xo'jaligi inqirozi Amerika dehqonchiliginning farovonligiga qattiq ta'sir qildi va uning ta'siri ayniqsa keying o'n yil davomida sezildi. R. Rajan "Kredit inqirozining anatomiyasi: 1920-yillarda Qo'shma Shtatlarda qishloq xo'jaligi yerlari narxlarining ko'tarilishi va pasayishi" asarida 1916-yildan 1920-yilgacha bo'lgan davr tovar narxlarining tubdan oshishi va shu bilan birga yer narxlarining o'sishi davri sifatida ta'kidlaydi [3]. L. Alston, shuningdek, 1916-1920-yillardagi narxlar indeksini o'rganish 1920-yildagi inqiroz sabablarini tahlil qilishning kaliti deb fikr bildiradi [4].

Inqiroz 1920-yil iyul oyida asosiy qishloq xo'jaligi tovarlari narxining pasayishi bilan boshlandi va bu 1921-yil yanvarigacha davom etdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narx indeksi 1920-yil boshida 205 tadan 1921-yil boshida 116 taga tushib ketdi [5]. Bir so'z bilan aytganda, birinchi jahon urushi davrida yuqori narxlarda yer sotib olgan va tijorat banklaridan kredit, ipoteka kreditlari olgan fermerlar 1920-1921 yillarda narxlarning "keskin" tushishi natijasida og'ir inqirozli holatga duch kelishgandi. Ko'pgina tadqiqotchilar 1910-yildan 1920-yilgacha bo'lgan davrda fermerlarning qarzlarini oshganini qayd etishgan. Kredit yukining umumiy darajasi sezilarli darajada oshdi.

Fermerlarning birinchi chiqishlari 1920-yil sentyabr oyida bug'doy ishlab chiqarishning yirik markazi Kanzasda boshlangan. Shtatdagi harakatni bug'doy ishlab chiqaruvchilar Milliy assotsiatsiyasi ya'ni 1920-yil yozida tashkil etilgan mintaqaviy kooperativ harakat boshqarib turgan. Uyushma qo'shni shtatlardagi fermerlarni "Qishloq xo'jaligi narxlariningadolatli darajasiga" erishilgunga qadar boykotga qo'shilishga chaqirdi [6]. Bu chaqiriqlar O'rta G'arbdagi boshqa bug'doy fermer xo'jaliklarida ham aks sado berdi. "Nyu-York Taims" gazetasi ta'kidlaganidek, bu vaqtida odatda don bilan to'lishi kerak bo'lgan bug'doy omborlar bu safar 3/4 yoki undan ham ko'proq qismi bo'sh qolgan [7].

1920-yil Oktyabr va noyabr oyining birinchi yarmida boykot harakati Kanzas va qo'shni Oklaxoma va Nebraska okruglar bo'ylab tarqaldi. Fermerlar, shuningdek, yo'llarda faol namoyish o'tkazish boshlashgan. Faol norozilik-zarbasi, yo'llarni blokirovka qilish bilan ro'y berib, asosan bu harakat Kanzas va Oklaxomaning chegara okruglaridan tashqariga chiqmadi. Shunga o'xshash vaziyat Ayovadagi asosiy jarayon markazi bo'lgan makkajo'xori kamarida ham rivojlanayotgan edi. Ushbu shtatda Mahalliy Fermerlar Uyushmasi tashkiloti narxlar ko'tarilgunga qadar mahsulot sotishni to'xtatishga chaqirdi. Biroq, bu yerda ham, 1920-yil dekabr oyining oxiriga kelib, ish tashlashlar bekor qilindi. Bunday vaziyat janubda, paxta kamarida, shuningdek, an'anaviy ravishda tamaki yetishtiriladigan Kentukki va Shimoliy Karolina Shtatlarida rivojlandi. Amerika Paxta Yetishtiruvchilar Assotsiatsiyasi bu yerda harakatni boshqarib turgan [8].

Siyosiy sohada fermerlar ahvoliga e'tibor 1920-yil ikkinchi yarmida kuchayib, qishloq xo'jaligi sohasidagi beshta Qonunchilik tashabbusi qabul qilindi: Qadoqlash korxonalarini faoliyatini tartibga solish to'g'risidagi qonun loyihasi, Fyuchers savdosini to'g'risidagi qonun (Futures Trading Act), Harbiy Moliya korporatsiyasini kengaytirish, shuningdek, federal xo'jalik kredit tizimi bilan bog'liq ikkita AKT (Federal Farm Loan System) AQSH fermerlari iqtisodiy hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan [9].

1920-yilda Prezident V. Vilson savdo komissiyasiga Qadoqlash korxonalarini manipulyatsiya qilish amaliyotini va bu sohada tekshiruv ishlarini boshlab yubordi. Tekshiruvlar natijasida Packers va Stockyard Qonuni 1921-yilda qabul qilingan bo'lib, unda narxlarni tartibga solish va ushbu sohada

monopoliyalarni shakllantirish taqiqlangan. Bu kabi islohotlar AQSH agrar-iqtisodiyoti va fermer xo`jaliklarining ahvolini asta-sekin yaxshilab brogan [10].

Shuni ta`kidlab o`tish lozimki, 1920-yillarda fermerlar rahbarlarining turli konferensiyalarida muhokama qilingan agrar islohot loyihalari keyinchalik XX asr 30-yillarida, keyin esa 70-va 80-yillarida AQSH siyosiy arboblarining dasturlariga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Historical Statistics of the United States. Volume 4. Cambridge, 2006. P. 160.
2. Lee J.Alston, "Farm foreclosures in the United States during the interwar period." Journal of Economic History" (1983): p 885–903.
3. Rajan R. The Anatomy of a Credit Crisis: The Boom and Bust in Farm Land Prices in the United States in 1920s // American Economic Review. 2015. Vol. 104, N. 4. P. 1439-1477
4. Alston, L. J. "Farm Foreclosures in the United States During the Interwar Period." Journal of Economic History 43 (4): 885–903
5. Black J. D. Progress of Farm Relief // The American Economic Review. 1928. Vol. 18, N. 2. P. 252.
6. White R. A. Milo Reno, "Pioneer of the Farmers' Union.The story of man and the uprising. Iowa City, 1941.P-36.
7. «The New York Times», Sept. 26, 1920. P. 16.
8. Языков Е. Ф. Фермерское движение в США (1918-1929 гг.) М., 1974. 129
9. Bradley P. The Farm Bloc // Journal of Social Forces. 1925. Vol. 3, N 2. P. 715-716.
10. Saloutos T. Twentieth Century Populism: Agricultural Discontent in the Middle West 1900-1939. Madison, 1951. P. 326-327.